

Havasxonim YUNUS Komolova

1998-yil 28-iyunda Farg'ona viloyati Quva tumani Akbarobod qishlog'ida tug'ilgan. 9 yoshida nazm gulshaniga qadam qo'ygan. 2016-yilda uning "Subhidamda ochilgan chechak" nomli ilk she'riy to'plami nashrdan chiqqan. Hozirda Farg'ona davlat universitetining Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi bitiruvchisi. Quva tumanidagi 29-umumiy o'rta ta'lim maktabida Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi.

MUSTAQIL YURTIMGA

Qaddingni tut, keksa Turkiston,
Qôllaringdan tashla asoni.
Bugun yoshlar kuylar baralla,
Ôtmishingdan kelgan navoni.

Sen borsanki, biz bormiz, Yurtim,
Biz bormizki, yashnaysan obod.
Shu sôzimni yodingda tutgin,
Istiqlolga, mana, biz qanot.

Qara, erka farzanding quyosh,
Qucho'gingni aylagan beshik.
Ol'ga yurgan shaxdam qadamlar,
G'alabaga ochmoqda eshik.

Kungaboqar-quyoshga kôzgu,
Chinorlarda yulduz gullaydi.
Shamollarga joylab salomin,
Kuz bahorga maktub yôllaydi.

Sen shunchalar gôzal, betakror,
Sen shunchalar aziz, muqaddas.
Sen tinch bôlsang, bizlar baxtiyor
Keng ba'g'ringda olamiz nafas.

Samolarni kôzladik bugun,
Chôqqilarga tutash yôlimiz.
Endi qôlga tutmaysan aso,
Qôllaringdan tutar qôlimiz!

HIYONAT

Qaysi toshga ursin boshini,
Qaysi toshlar beradi bardosh?
Zahar qilsa yegan oshini,
Bir otilib, ikki tekkan tosh.

Qay tomonga bursin yo'lini,
Qayda tovon tilmas tikanlar?
Hiyonat bu-ishqning o'limi
Va vafoga atalgan zahar.

Qayerda bor beminnat yelka,
Boshin qo'yib yig'lab olgani?
Bir vaqtlar qaynoq bag'ning
Seziladi sovib qolgani.

Kimga bersin vayron ko'nglini?
Sinib-sinib ketsa har safar.
Hiyonat bu-ishqning o'limi,
Sadoqatga sanchilgan xanjar.

Qaysi toshga ursin boshini,
Qaysi toshlar beradi bardosh...?

KO'NGIL SO'RAMA

Ey,ko'nglimni olgan yor
Va ko'nglimda qolgan yor.
So'ng ko'nglimdan qolgan yor,
Mendan ko'ngil so'rama.

Orzular yig'lamoqda,
Hiyonat kulgan chog'da.
Shartmas! Sevgingni soxta
Sadoqatga o'rama.

Yuragingni bosdi zang,

Muhabbatga qo'ndi chang.
Dilni pok tutolmasang,
Ishqqa yaqin yo'lama!

Yodimda...gulzor go'sha...
Dil izhori ... keng ko'cha.
Seni uchratgan o'sha
Kunni yomon ko'raman.

Ey ko'nglimni olgan yor
Va ko'nglimda qolgan yor.
So'ng...
Ko'nglimdan qolgan yor,
Mendan ko'ngil so'rama!